

O‘QITUVCHINING TAJRIBA ALMASHINISH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Atayeva Maloxat Isakovna

*Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim
metodikasi kafedrası” o‘qituvchisi*

Ilg‘or pedagogik tajribalar va ta’lim nazariyasiga oid yutuqlarni amaliyotga joriy etish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. O‘qituvchini muayyan pedagogik faoliyatga jalb etishga oid ko‘plab tajribalar vujudga kelmoqda va to‘planmoqda.

Ko‘plab o‘qituvchilarda amaliyotda mavjud tajribalarni o‘zlashtirish ehtiyoji shakllanmagan. Mazkur tajribalarni tanlash va tahlil qilish ko‘nikma va malakalari ham etarlicha tarkib topmagan. O‘qituvchilar o‘zlarining shaxsiy tajribalari va kasbdoshlarining faoliyatlarini tahlil qilishga etarlicha e‘tibor qaratmayaptilar. O‘qituvchining pedagogik faoliyati an‘anaviy hamda innovatsion xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, ilg‘or pedagogik tajribalar alohida samaradorlikka ega. Shu bilan bir qatorda pedagogik tajribalar yangilik kasb etib, u ta’lim amaliyoti va didaktika nazariyasini boyitishga hissa qo‘shadi. Ilg‘or tajribalarni yaratish va hamkasblari orasida ommalashtirishda o‘qituvchining mavqei alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham muayyan tajribaning asosiy holatlari va ko‘rsatkichlarini amaliyotga kiritish hamda ommalashtirishda sub‘ektiv omillarni alohida hisobga olish kerak. Shuningdek, uning variantlarini baholash va pedagogik jamoa orasida yoyish nihoyatda zarurdir. Tajribalarni uzatish va o‘zlashtirish jarayonida uning ob‘ekti va yangi jihatlariga alohida e‘tibor qaratgan holda amaliyotga joriy etish talab qilinmoqda. Har bir o‘qituvchi yangi tajribani vujudga keltirishi uchun uning qimmatli hamda betakror jihatlariga e‘tibor qaratishi kerak. Ilg‘or pedagogik tajribalar ommaviy xarakter kasb etishi uchun o‘qituvchi ob‘ektiv pedagogik nazariyalarni o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Pedagogik tajribalarning rang-barangligini novatorlik hamda tadqiqotchilik orqali ko‘rish mumkin. Bunda o‘qituvchi amaliy faoliyatdan nazariy tahlil va umumlashtirishga o‘tadi. Bunday yondashuvlarda mamlakat ta’lim tizimiga xos bo‘lgan innovatsion qarashlar va usullar o‘z ifodasini topadi. Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab AQSH va G‘arbiy Evropa mamlakatlarida «ta’lim texnologiyasi» tushunchasi e‘tirof etilgan vaqtida paydo bo‘ldi. Bu tushunchalarning paydo bo‘lishi va innovatsion ta’lim nazariyasining yaratilishi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu tushunchalar ta’lim tizimiga yangiliklarni, pedagogik texnologiyalarni kiritish orqali talabalarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish, ta’lim

samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida o'quvchi-talabaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. O'qituvchi faoliyatining innovatsiyalarga yo'nalganligi psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish imkonini beradi. Pedagogik tadqiqotlar natijasini ommalashtirish uchun amaliyotchilarni olingan natijalar bilan maxsus tanishtirish talab etiladi. O'qituvchilarni yangi tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyatga egaligiga ishontrish asosida ularda yangiliklarni o'zlashtirish ehtiyoji hosil qilinadi. Bu yangiliklar mutaxassislar tomonidan tezkor maslahatlar berish, maxsus seminarlar va treninglar tashkil etish, konferensiyalarda chiqishlar qilish, bo'lajak o'qituvchilarga esa turkum ma'ruzalar o'qish orqali etkaziladi. «YAngi pedagogik g'oyalar va texnologiyalarning ommalashtiruvchisi va targ'ibotchisi kimlar bo'lishi kerak?» degan haqli savol tug'iladi. Alohida o'qituvchi yoki ta'lim muassasasi tajribasini o'rganish, ommalashtirish oliy ta'lim muassasasi professor o'qituvchilari, umumta'lim muassasalarida ishlaydigan ilg'or pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday guruhlarni tashkil etish zaruriyati bir qator holatlar bilan ifodalanadi:

1. Pedagogik yangilik muallifi uning istiqboli haqida zarur ma'lumotlar va aniq bahoni bera olmaydi.
2. Ilg'or g'oyalarni ommalashtirish pedagogdan qo'shimcha vaqt, kuch-quvvat va og'ir mehnatni talab qiladi.
3. Muayyan yangilik har doim ham uning muallifi tomonidan ilmiy-metodik jihatdan etarlicha asoslanmaydi.
4. Mualliflar o'zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari, yondashuvlarini bayon qilishda o'zlari va hamkasblarining shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq holda to'xtalishlarga va to'siqlarga duch keladilar.
5. Ijodiy guruh o'z zimmasiga nafaqat pedagogik innovatsiyalarni targ'ib qilish va ommalashtirish, balki ular asosida o'qituvchilar faoliyatiga tuzatishlar kiritish, bo'lajak pedagoglarning kasbiy bilimdonligi va mahoratini boyitish vazifasini ham oladi.
6. Ijodiy guruh a'zolari pedagogik monitoring o'tkazish, innovatsiyalarni tizimli tanlash, yangi g'oyalar, texnologiyalarni baholash, oliy ta'lim muassasalari ish tajribalarini boyitish vazifasini ham o'z zimmasiga oladi.

Tatbiq etishga yo'naltirilgan faoliyatni boshqarishda innovatsiya muallifining o'zi ishtirok etmaydi. Bunday yondashuv ijodkor o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytirish va uni muayyan maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi. SHu tariqa pedagogik innovatsiyalar yaratuvchilari va ommalashtiruvchilarining quvvatlari bir nuqtaga jamlanib, muayyan maqsadga yo'naltiriladi. Pedagogik innovatsiyalar o'zining muayyan tavsifiga ega. Pedagogik innovatsiyalarning bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatini

shakllantirishga xizmat qiladigan o'lovchilari quyidagilardan iborat: innovatsion usullarning yangiligi, optimalligi, yuqori natija berish imkoniyatiga egaligi, ommaviy tajribada ijodiy qo'llash imkoniyatiga egaligi kabilar. Innovatsion usullarning asosiy o'lovchi ularning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalari hamda ilg'or pedagogik tajribalar bilan tengligidadir. SHuning uchun ham innovatsion jarayonda faoliyat ko'rsatishni istovchi o'qituvchilar uchun yangilikning asosiy mohiyati nimadan iboratligini bilish muhim ahamiyatga ega. Agar bir o'qituvchi uchun mazkur tajriba tamoman yangi hisoblansa, ikkinchisi uchun yangi bo'lmasligi ham mumkin. SHuningdek, bo'lajak o'qituvchilar uchun ham ayni bir usulning yangilik darajasi turli-tuman bo'lishi mumkin. SHuning uchun o'qituvchilar ham, bo'lajak pedagoglar ham innovatsion ijodiy faoliyatga ixtiyoriy tarzda o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kirishishlari lozim. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy o'ziga xosliklari, individual-psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullarning yangiligi bir necha darajalarda namoyon bo'ladi. Ular: absolyut daraja; lokal-absolyut daraja; shartli daraja; sub'ektiv daraja kabilar. Bu farqlar ularning qo'llanish sohasi va aniqlik darajasi bilan bog'liqdir. Pedagogik innovatsiyalar samaradorligining o'lovchi sifatida optimallik o'qituvchi va o'qituvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o'qituvchilar va o'qituvchilar o'zlarining shaxsiy pedagogik hamda o'qituvchi faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar. Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni kiritish asosida imkon qadar kam kuch va vaqt sarflagan holda yuqori samaradorlikka erishish hamda kafolatlangan natija olish nazarda tutiladi. Xuddi mana shuning o'zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi. Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o'qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo'ladi. O'lovchilardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o'qituvchi faoliyatining yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi. Mazkur o'lovchi ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo'ladi. Pedagogik amaliyotda yangi g'oyalar va texnologiyalar tor, cheklangan darajada qo'llanish doirasiga ega bo'lib qoladi. Bu asosan o'qituvchi jarayonining texnik ta'minoti va o'qituvchi faoliyatining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Bunday vaziyatda pedagogik yangiliklar haqida fikr yuritish ahamiyasizdir.

Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajriba sinovdan o'tkazilib, ob'ektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan

innovatsion usullardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish bo'lajak o'qituvchining pedagogik ijodning rang-barang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma'lum bo'lgan g'oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o'z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo'lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim. Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak o'qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy-psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo'llash talab etiladi. SHu maqsadda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini qo'yish lozim:

1. Oliy ta'lim muassasasida innovatsion muhitni vujudga keltirmaslik bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatiga ham keskin ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, ulardagi ijodkorlik, yaratuvchilikning rivojlanmasligiga, so'nib borishiga sabab bo'ladi. YOsh o'qituvchilarning innovatsiyalarni izchil o'zlashtirganliklari sababli pedagogik jamoadagi qulay muhitda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar orasidagi qarama-qarshiliklar darajasi pasayib, kasbiy faoliyatdagi eski qoliplar bartaraf etiladi. Ta'lim muassasasidagi innovatsion muhitda o'qituvchining yangilikka bo'lgan munosabati yaqqol namoyon bo'ladi

2. O'qituvchining innovatsion faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan tashxislash metodlari ham rang-barangdir. Pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va qo'llash imkonin beradigan texnologik muammolar pedagogik tajribalarni tashxislash negizida o'rganilishi lozim. Tashxislash metodlaridan foydalanish o'qituvchi faoliyatining kuchli jihatlarini namoyon qiladi. Shuning uchun ham talabalarni tashxislashning zamonaviy metodikalari bilan qurollantirish davr talabidir. Talabalarning kasbiy istaklari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularda kasbiy-pedagogik madaniyatni shakllantirish va muntazam rivojlantirishga yo'naltirilgan to'laqonli maqsadli faoliyatni amalga oshirish lozim. Shu asosda har bir yosh o'qituvchining ijod qilishi, yaratuvchilik faoliyati bilan shug'ullanishi, tashabbus ko'rsatishi uchun qulay sharoit yaratish nazarda tutiladi. Tashxislash asosida pedagogik innovatsiyalarni o'rganishda har bir o'qituvchi tajribasida ijobiy, rivojlantiruvchi holatlar bilan bir qatorda salbiy ko'rinishlar ham mavjudligini hisobga olish zarurligini unutmaslik kerak. YOsh o'qituvchi ta'lim muassasasida

samarali faoliyat ko'rsatishi uchun uning ish tajribasida mavjud bo'lgan ijobiy hamda salbiy jihatlarni tashxislash asosida yaqqol ko'rsatish talab etiladi.

- bo'lajak o'qituvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalarni izlab topish va oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga joriy etish;

- bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash jarayonidagi o'ziga xoslik va ularning turli-tuman ko'rinishlarini aniqlash, bunda namoyish qilish, tasvirlash, ochiq darslar o'tkazish, yangi manbalar ustida ishlash, ma'ruzalar tashkil etish, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etish kabi ish turlaridan keng foydalanish kabilar. Pedagogik innovatsiyalarni tashxislash asosida o'rganishga yo'naltirilgan amaliy ishlarni ham bir necha bosqichlarda o'tkazish tavsiya etiladi:

1. Dastlabki bosqichda bo'lajak o'qituvchilardan anketa so'rovlari, anketa savollariga olingan javoblarni tashxisdan o'tkazish, individual suhbatlar tashkil etish va anketa savollariga olingan javoblardagi ma'lumotlarni tasdiqlash, tashxis natijalari asosida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish.

2. Mazkur bosqichda birinchi bosqich natijalari asosida bo'lajak o'qituvchining kasbiy pedagogik malakasini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar rejalashtiriladi hamda ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatiladi.

3. Ushbu bosqichda amalga oshirilgan ishlar yakunlanib, takroriy tashxislash o'tkaziladi.

Mazkur jarayonda bo'lajak o'qituvchining faoliyati oraliq hamda yakuniy natijalarni olishga yo'naltiriladi. Guruhdagi talabalar faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar chuqur tahlil qilinadi. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning hosil qilgan kasbiy ko'nikma, malaka va tajribalarini tashxislash hamda ularni tashxislash metodlari bilan qurollantirish kasbiy pedagogik ta'lim jarayonini innovatsion g'oyalar asosida qayta qurish talabalarning kreativ faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlikka undash imkoniyati vujudga keladi.

O'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishga hissa qo'shadigan jihatlardan biri - bilim almashinuvi alohida ajralib turadi. Ilmiy izlanishlar tahlili asosida ta'lim sifatini oshirishda bilim almashinuvining ahamiyati haqida xulosa chiqariladi.

Pedagogning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi jihatlardan biri bu bilim almashishdir. Ilmiy izlanishlar tahlili asosida bilim almashish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega degan xulosaga keldi.

Insoniyat taraqqiyoti bilimlarni avloddan-avlodga uzluksiz uzatish orqali amalga oshiriladi. Jahon sivilizatsiyalari turli xil versiyalarda (qoya rasmlari, qadimiy yozuvlar, qo'lyozmalar) to'plangan o'zlarining kelib chiqishi haqidagi dastlabki eslatmalarni

saqlaydi. Muayyan bilimlarni to'plagan holda, odamlar efigra uzatilayotgan ma'lumotlarning avlodlari uchun ahamiyatini tushunib, uni uzatadilar. SHunday qilib, bilim jamiyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan jang. Ta'lim tizimining asosiy vazifasi bu bilimlarni yetkazishdir. Zamonaviy o'qituvchining roli insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining butun davri davomida to'plagan ma'lumotlarni qayta ishlash va uni talabalarga etkazishdir. Ushbu ma'lumotlar bilimga aylanadi va bu talabalarga kelajakda turli xil hayotiy vaziyatlarda malakali bo'lish imkonini beradi.

Mohiyatan o'qituvchi ilmiy bilimlar tashuvchisi bo'lgani uchun jamiyat taraqqiyotida muhim vazifani bajaradi. Zamonaviy dunyo axborot o'sishining yuqori sur'ati bilan ajralib turadi. O'qituvchining bilimi yangi ma'lumotlar bilan boyib boradi. Axborot jamiyati ham ijobiy, ham salbiy hodisalar bilan ajralib turadi. Bir tomondan, bugungi kunda deyarli har qanday ma'lumotni tez va hech qanday qiyinchiliksiz olish mumkin. Boshqa tomondan, ma'lumotlar turli xil (tajovuzkor, noqonuniy, axloqsiz) bo'lishi mumkin va shunga mos ravishda ushbu ma'lumotlardan foydalanuvchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular olgan ma'lumotlar jamiyat uchun buzg'unchi harakatlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimga aylanadi.

Ushbu hujjatlarning barchasida asosiy g'oya: o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, jumladan, fan, uslubiy, psixologik va pedagogik bilimlarni boyitish muhimligi. Bu ta'lim sifatini oshirish, ta'limning global makonda obro'sini oshirish uchun zarur. Shunga mos ravishda yuqori sifatli ta'lim talabalarning sifatli bilimiga olib keladi, bu esa kelajakda davlat farovonligiga ta'sir qiladi. Demak, bu mulohazalar o'qituvchining tegishli sohalar: psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik, tibbiyot bo'yicha bilimlarini boyitish zarurati bilan bog'liq. SHu sababli, bu bilimlarni boyitish qanday amalga oshirilishi mumkinligi haqida tabiiy savol tug'iladi. Bugungi kunda ko'plab variantlar mavjud: bosma ommaviy axborot vositalarida ilmiy nashrlar, ochiq manbalarda ma'lumotlarni joylashtirish (kasbiy fanlar bo'yicha Internet saytlari, kasbiy mahorat tanlovlari, malaka oshirish kurslari, mahorat darslari va boshqalar). Ularning barchasi axborotni uzatishning yagona mexanizmi - bilim almashinuvini o'z ichiga oladi.

Shunga ko'ra o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashini to'g'ri shakllantira olishi, ochiq ma'lumotlarga tanqidiy munosabatda bo'lishga o'rgatish kerak. Buning uchun albatta, unga bu sohada bilim kerak. Boshqacha aytganda, bugungi kunda o'qituvchiga faqat fan bilimi etarli emas. Bugungi o'quvchilarga bu dunyoda muvaffaqiyat qozonishlariga yordam berish uchun o'qituvchidan tashqariga chiqish muhimdir.

O'qituvchining kasbiy rivojlanishi uchun me'yoriy hujjatlarda pedagogik kompetensiyaga ma'lum talablar qo'yiladi.

F.Lin, S.Lin, T.Xuang o'qituvchilar o'rtasida bilim almashishda zamonaviy jarayonlarni hisobga olish zarurligini qayd etadilar. O'qituvchilarning virtual

hamjamiyatining muhim roli e'tirof etilgan. Ushbu formatda turli tashkilotlarning jamoa a'zolari o'rtasida turli xil bilim oqimlari amalga oshiriladi. F.Kornelissen, J.Svet, D.Beyjaard, T.Bergenlar o'z maqolalarida maktab va oliy kasbiy ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning muhimligini ta'kidlab o'tganlar.

Xususan, talabalarning ilmiy izlanishlarini o'qituvchilarning amaliy faoliyatida qo'llash taklif etiladi [4,10-11b]. Bir guruh rus olimlari T.E.Andreeva, A.V.Sergeeva, A.A.Golubeva, Ya.Yu.Pavlovlarning tadqiqotlarida ta'lim tashkilotlarida bilim almashinuvi muammolari [5, 400-b] va uning intensivligiga ta'sir qiluvchi omillar. Maktablarda bilim almashishdagi muammolar qatorida uning maqsadlari, bilim almashish va transformatsion etakchilikdagi faoliyati haqida fikr-mulohazalar. Bunday holda, o'qituvchilarning bilim almashish motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi boshqaruv mexanizmlari taqdim etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gromova T.A., Selivanov A.V. O'quv jarayonining logistikasi // Reshetnevskie o'qish. 2012. V. 2. No 16. P. 761-762
2. Nosov A. L. Kasb-hunar ta'limi muhitida logistikaning o'rni // Ilmiy-metodik elektron "Konsepsiya" jurnali. - 2013. - T. 11. - S. 56–63.
3. Pedagogik logistika // Polisvetie: Sat. Kohtla-Jarve, 2007.- No 1.- S. 72–79.
4. Matsieva M.N, Yarychev N.U. Umumiy ta'lim tashkilotida bilim almashishning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari [Sushchnost' i osobennosti osushchestvleniya obmena znaniyami v obshcheobrazovatel'noy organizatsii]. Zamonaviy yuqori texnologiyalar, 2016 yil, y. 10–11, bet. 176–180. Mavjud: <http://top-technologies.ru/ru/article/view?id=36301> (kirish sanasi: 06/12/2019).
5. Gaponenko Al, Orlova T.M Bilimlarni boshqarish. Qanday qilib bilimlarni kapitalga aylantirish mumkin. [Bilimlarni boshqarish. Kak prevratit' znaniya v kapital], 2008. 400 b
6. Носов А.Л. Логистика как дисциплина изучения и как методология образовательного процесса // Концепт: научно-методический электронный журнал - 2013. - Т. 11. - с. 56–63.
7. Shakhlo Nurullaeva [Zamonaviy o'qituvchi mahorati va ijodkorligi muammolari.](#) E-Library Karshi EEI jurnal.2021/8/19 Tom 1 /01